
BAYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN!

☞ Tinchlik – bebaho ne'mat. Uni saqlamoq, avaylamoq, kerak bo'lsa bu yo'lda jon fido qilish shu zaminda yashayotgan har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Ta'kidlash joizki, osuda hayotimiz, musaffo osmonimiz, aziz bolajonlarimizning quvnoq kulgisi, ota-onalarimizning farovon umr kechirishi yurtimizdagi barqarorlik – tinchlik tufaylidir.

???? Tinchlik-xotirjamlik doim e'zozlanadigan, uning uchun tinmay shukrona aytiladigan aziz ne'matdir. Yurtimiz tinch, hayotimiz bir maromda, xotirjam kechmoqda, kunlarimiz yorug', tunlarimiz osuda. Har kuni erta tongda ketib, kechqurun ishdan qaytamizmi, bir necha kunlik uzoq safarlarda bo'lamizmi, oila a'zolarimizdan ko'nglimiz xotirjam.

???? Oynai jahon orqali osmonini urushning qora buluti qoplagan, har kuni begunoh qonlar to'kilib, insonning insonlik, fuqarolik haq-huquqi poymol qilinayotgan, uy-joyi vayron, ekini payhon, mol-mulki talon-taroj bo'layotgan yurtlarni ko'rganimizda Vatanimizdagi dorilomon kunlarning qadrini yanada chuqurroq his qilamiz.

✿ Ayni paytda bu osuda hayotning xavfsizligini himoya qilayotgan, kecha-kunduz xizmatda shay turgan tinchligimiz posbonlariga ham minnatdorchilik bildiramiz, rahmatlar aytamiz. Ularning xizmatlarini yuksak qadrlaymiz va har yili oktyabr oyining 25 kunini – Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni sifatida butun yurtimizda keng nishonlaymiz.

□ Ana shu kun munosabat bilan Ichki ishlar idoralarining barcha xodimlarini, Qorovul qo'shinlarining harbiy xizmatchilarini, ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, tinglovchi va kursantlarini, xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan xodimlarning oila a'zolarini, ichki ishlar idoralari faxriylarini bu bayram bilan o'zimiz va butun xalqimiz nomidan samimiy muborakbod etamiz.

* Ushbu bayram tabrigi orqali o'z oromi, tinchi, huzur-halovati, rohat-farog'atidan, kerak bo'lsa jonidan kechib, Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini himoya qilayotgan ichki ishlar xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasidagi mashaqqatli xizmatini alohida e'tirof etmoqchimiz.

Abror Dehqonov,
Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati rahbari.

2022-10-25 08:30:40